

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

44 709

121,7 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

42 889

119,3 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


1 473

140,4 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-fevral oyida)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




■ Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish
■ O'rmon xo'jaligi
■ Baliq xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

7



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 9,4 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,3 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 120,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 107,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 113,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 104,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,5** foizga oshdi




Kichik tadbirdorlik subyektlari soni




12,6
foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



18,7
foizga
oshdi



Oilaviy korxonalar



27,9
foizga
oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga
nisbatan **36,4**
foizga oshdi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga
nisbatan **1,4**
foizga oshdi



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31,0** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



31,1 foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



34,7 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




78,9 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **15,1** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




16,5 foizga oshdi

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

10



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

11

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

859



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

34



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

65



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



129

yashash bo'yicha xizmatlar



2 161

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 129,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 109,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,6 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

12




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


13




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,9 foizga oshdi**



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



37,2
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




11,8
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



2,5
foizga oshdi




Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


14




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,8 foizga oshdi**



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




13,5
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




21,6
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga
nisbatan
16,7 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1-mart holatiga ko'ra 5,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 mingtaga yoki 143,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5,2 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 mingtaga yoki 138,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 250 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109 taga yoki 1,8 barobariga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1-mart holatiga ko'ra 20,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,5 mingtaga yoki 127,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 mingtaga yoki 125,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 962 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 290 taga yoki 143,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra 472 tani tashkil etib, ulardan 460 tasi yoki 97,5 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 45 taga yoki 110,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida, birlikda)



Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


18

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Belorussiya Respublikasi	6	3	3
Ozarbayjon Respublikasi	6	2	4
Qirg'iziston Respublikasi	31	28	3
Qozog'iston Respublikasi	14	12	2
Rossiya Federatsiyasi	110	84	26
Tojikiston Respublikasi	6	5	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	
Ukraina Respublikasi	4	2	2
Armaniston Respublikasi	4	2	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

19



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	162	210	305	422	460
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2	4	14	27	26
Sanoat	118	149	193	244	262
Qurilish	3	5	8	11	15
Savdo	15	19	44	73	84
Tashish va saqlash	3	6	8	12	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	8	12	15	15
Axborot va aloqa	2	3	4	4	4
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	5	7	10	9
Boshqa turlar	8	11	15	26	31

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

20



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


21

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	460	306	154
Oltiariq tumani	16	9	7
Qo'shtepa tumani	7	5	2
Bag'dod tumani	12	9	3
Buvayda tumani	10	7	3
Beshariq tumani	7	4	3
Quva tumani	21	13	8
Uchko'prik tumani	15	11	4
Rishton tumani	14	11	3
So'x tumani	4	3	1
Toshloq tumani	13	8	5
O'zbekiston tumani	23	21	2
Farg'ona tumani	24	13	11
Dang'ara tumani	16	8	8
Furqat tumani	7	5	2
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	154	100	54
Qo'qon shahar	62	39	23
Quvasoy shahar	28	22	6
Marg'ilon shahar	22	17	5

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

22




2021- yil 1- mart holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,2 %), Qo'qon shahar (12,6 %), Marg'ilon shahar (9,7 %), Uchko'prik tumani (5,2 %), Dang'ara tumani (4,8 %), Oltiariq tumani (4,7 %), Quva tumani (4,6 %), O'zbekiston tumani (4,6 %), Buvayda tumani (4,5 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (3,7 %), Rishton tumani (3,5 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Quvasoy shahar (3,2 %), Beshariq tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,5 %), So'x tumani (2,4 %), Yozyovon tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (12,9 %), Qo'qon shahar (10,7 %), Marg'ilon shahar (8,6 %), Uchko'prik tumani (6,8 %), Dang'ara tumani (4,8 %), Oltiariq tumani (6,2 %), Quva tumani (5,0 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Buvayda tumani (4,1 %), Toshloq tumani (3,5 %), Farg'ona tumani (5,5 %), Bag'dod tumani (4,5 %), Rishton tumani (5,2 %), Qo'shtepa tumani (3,1 %), Quvasoy shahar (4,1 %), Beshariq tumani (2,4 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (2,6 %), Yozyovon tumani (2,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy
korxonalarga taqsimlanishi**

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

24




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021-yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)

25




2021-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (4,8 %), Qo'qon shahar (5,6 %), Marg'ilon shahar (2,8 %), Uchko'prik tumani (3,2 %), Dang'ara tumani (10,0 %), Oltiariq tumani (16,0 %), Quva tumani (3,2 %), O'zbekiston tumani (7,2 %), Buvayda tumani (3,2 %), Toshloq tumani (2,4 %), Farg'ona tumani (6,0 %), Bag'dod tumani (5,6 %), Rishton tumani (11,2 %), Qo'shtepa tumani (1,6 %), Quvasoy shahar (3,6 %), Beshariq tumani (4,0 %), Furqat tumani (5,2 %), So'x tumani (3,6 %), Yozyovon tumani (0,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021-yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical reports like "E'on qilish taqvim", "Metama'lumotlar", etc. The central part of the page features a search form for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code). A dropdown menu is open, showing options like "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Ahollini ro'yxtatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'llimi
Tel.:73 249-87-34**